

ISHGA QABUL QILISH TARTIBI VA YARATILGAN SHAROITLAR

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi sizni Vazirlik tizimidagi bo'sh ish o'rinlariga taklif qiladi.

Suv xo'jaligi vazirligi tizimiga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" Qonuni hamda Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 19-iyundagi PF-95-sonli Farmoni talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi bo'sh ish o'rinlari (vakant lavozimlar) to'g'risidagi ma'lumotlar:

- "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan foydalangan holda "Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali" (vacancy.argos.uz) dasturiy-apparat kompleksiga;

- Suv xo'jaligi vazirligining rasmiy veb-saytiga va ijtimoiy tarmoqlardagi e'lon sahifalariga joylashtiriladi.

Yoshi, millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy va mansab mavqeyidan qat'iy nazar, o'zlarining kasbiy, ishbilarmonlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlar hamda ma'lumot darajasiga ega, shuningdek, davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash huquqi qonunchilik bilan cheklanmagan va tegishli lavozimni egallash uchun malaka talablariga javob beradigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Suv xo'jaligi vazirligi tizimiga **ochiq mustaqil tanlov** orqali ishga qabul qilinadi.

Bo'sh ish o'rinlari (vakant lavozimlar)ga ishga kirish uchun tanlovda ishtirok etish:

Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portal (vacancy.argos.uz) orqali amalga oshiriladi.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun telefonlar:

(71) 202-47-36